

МАЖБУРИЙ НУСХА

Doniyor MAVJUTOV
Doston DOVLATOV

BIOLOGIK TOPISHMOQLAR

(Uslubiy qo'llanma)

«Namangan» nashriyoti
2015

821.512.133-84

UOK: 821.512.133-9

KBK: 84 (5Ÿ36) 7

M - 52

Ÿz. agad

Ushbu uslubiy qo'llanma umumiy o'rta ta'lim
maktablarining 5-9-sinf o'quvchilari uchun
mo'ljallangan.

ISBN - 978-9943-989-42-9

NG 1421 - 5244.5 - 1830050 2015
1422 - (2.0) - (11)

© «Namangan» nashriyoti

© Alisher Navoiy, D.Mavjutov, D.Dovlatov, 2015

nomidagi

O'zbekiston MK

2015/118

A 4954

HO 4407H
091

SO`Z BOSHI

Biologiya – hayot jumboqlarini yechishga asoslangan, sayyoramizning ajoyib-u g`aroyib o`simlik va hayvonlari haqida ma'lumot beruvchi fan. Dunyo faunasi hamda florasi manzarasini o`quvchi nigohida aks ettirar ekan, har satrida o`quvchilar qalbiga tabiatni sevish va ardoqlash hissini joylashga erishadi. Fan sirlari bilan tanishib borayotgan o`quvchi nigohida turli xil o`simlik va hayvonlar siyrati aks etadi. Organik muhitdagi borliq bilan sirlashish mayillari tug`iladi.

Respublikamiz umumiy o`rta ta'lim maktablarida biologiya fanini DTS talablari asosida o`qitishning mukammal yo`l-yo`riqlari ishlab chiqilib, amalga tadbqiq etish sohasida bir qator ishlar amalga oshirilib, samarali natijalarga erishilmoqda. Yangi avlod darsliklarini har tomonlama mukammal, didaktik talablarga mos, zamon bilan hamnafas shakllari yaratilib, ta'lim tizimiga joriy etilishiga erishildi.

Darslik sahifalarida aks etgan ilmiy mulohazalarni o`quvchilarga oson, qiziqarli tarzda yetkazish maqsadida qator o`quv qo`llanmalari didaktik manba vositalari yaratilib, o`quv jarayonlarini faollashtirishga erishilmoqda.

Sizga taqdim etilayotgan ushbu o`quv qo`llanmasi ham ana shunday ezgu maqsadlarni o`ziga jo etgan. Xalq og`zaki ijodining betakror namunalaridan biri topishmoqlar .

hisoblanadi. Topishmoqlar biror buyum, jism, yoki narsaning chala tavsifnomasidir. Chala ifodaning to'liq mazmunini anglab olish uchun esa o'quvchidan chuqur mantiqiy tushunchalarga ega bo'lish talab etiladi. Shu bois topishmoqlar o'quvchi ruhiyatiga chuqur kirib borib uni ijodkorlikka, topqirlikka undaydi. Ba'zi topishmoqlarning javoblari rasmlarda ifodalanganligi o'quvchi bilan ishlashni qulaylashtiradi.

O'zbek xalqining qadimgi boy madaniy, ma'naviy, ma'rifiy imkoniyatlari nechog'lik kengligini yana bir bor isbot etib, ta'lim tizimiga «Geografik topishmoqlar» ni tadbiiq etishga erishgan D. Mavjutovning «Biologik topishmoqlar» to'plamini ham sizning ta'lim jarayoningizga tadbiiq etishingiz uchun tavsiya etamiz.

«Biologik topishmoqlar» to'plami siz ta'lim-tarbiya berayotgan yangi avlod vakillari qalbida ma'naviyatimiz xazinasiga hurmat hissini rivojlantirib, topqirlik, zukkolik, teranlik, bilimdonlik fazilatlarini yanada boyitadi deb ishonamiz.

1. Tolasi malla rang,
Qisqa ham dag'al,
Shu bois ekilmas,
Hozirgi mahal.

2. Ketar bo'lsa qon,
U qo'yar tuzoq.
Topib oling o'simlikni,
Mevasi qo'zoq.

3. Tarkibida ishqor, sho'r,
Saqlar sho'rak, donasho'r.
Sovun olsa bo'ladi,
Kim javobin biladi?

4. Erur karamdosh,
O'ramaydi bosh.
Tortilganda osh,
Bo'lar u yo'ldosh.

5. Deyarli yo'q yaprog'i,
Kulrang, qora bo'yog'i.
Qanotchali mevasi,
U sahroning chirog'i.

6. Rezavor, ziravor,
Sho'radosh, oziq osh.

7. U yumshoq non nahorda,
Ekilar kuz, bahorda.

8. Yer ostida qizil qop,
Shirin kulcha nima? Top!

9. Suvda turar tanasi,
Pashshaning boshpanasi
Yumshoqqina poxoli,
Ro'vak gulli bu

10. Birma botqog'i,
Uning doyasi .
Qog'oz bo'ladi.
Uning poyasi.

11. Hoxlamas soya,
Kraxmal poya.
Batatga yondosh,
Chilinga qondosh.

12. Ituzumdosh,
Poyasi osh.
Zaharli mevasi,
Bo'lar bir bosh

13. Uni derlar,
«Ikkinchi non»
Chilidan u
Bo'lgan mehmon



**14. Qoyalarga yonboshlar,
Har kuni toshni oshlar.
Hosil qiladi tuproq,
Topingchi, qo'ydim so'roq?**

15. Bor uning bir oyog'i,
Qalpog'ida siyohi.

**16. Bir oyoq,
Boshida qalpoq.
Go'ng ustiga
To'kar siyoh.**

17. Gulida bor qilcha,
Yaprog'ida tilcha.
Poyasining ichi bo'sh,
Mevasi xamirturush.

**18. Olmaning qarindoshi,
Mevasida bor toshi.**


19. Suv sathida kun-u tun,
Ikki o'rtoq bichar to'n.

**20. Asati, umriboqi -
Bo'lar mazali qoqi.**

21. Bargi momiq,
o'rmlaydi poyasi.
Oromgohi -
daraxtlarning soyasi.

**22. G'o'za undan jon sarak,
Derlar uni, «Oq palak».**

23. Qizil tosh to'la qanor,
Og'zi bog'liq qop -.....



**24. Tojlari qavat-qavat,
Mevasi bo'lar savat.
O'xshaydi u Quyoshga,
Kuz yetar kekxa-yoshga.**


25. Gullar yilda yuz bora,
Shingili qizil, qora.
Ishkomda turmas bir zum,
Uni derlar,

**26. Yashaydi
Yetmish-yuz yil,
Mevasi shaqillaydi.
Bir gala qarg'a, zog'cha,
Shoxida qag'illaydi.**

27. Kim to'rg'asa boshini,
Chiqarar ko'z yoshini.

**28. Barglari taram-taram,
Otdan ko'p suv ichadi.
Xo'randalar o'ramini,
Galma galdan yechadi.**

29. O'ram-o'ram oq po'stin,
O'rtasida bor ustun.



30. Har qavatda oq po'sti,
O'rama qavat po'stin.
Popuk ildiz, bo'sh yaproqli,
Nomini toping, do'stim.

31. U qoshga bo'yoq,
Mevasi qo'zoq.

32. Vatani sahro, cho'l,
Yashil to'ni yo'l-yo'l.
O'xshar futbol to'piga,
Paykallarda mo'l-mo'l.

33. Bargiga mum surkab olib,
Tik qoyaga in solgan.
Xazon davridan nolib,
Har mavsum undan qolgan.

34. Uni hamma biladi,
Ko'sak meva qiladi.
Ochilib 3-5 chanoq,
Tolasi bo'lar oppoq.
Urug'uda to'plar yog',
Topingchi, qo'ydim so'roq!

35. Unda efir moyi bor,
Dasturxonda joyi bor.
Emas u momoqaymoq,
Rayhon yoki ismaloq.
Ko'z quvnatib bahorda,
Gilam labi anhorda.

36. Uning mevasi dukkak,
Barglari juft patsimon.
Gulida qayiq, eshkak,
Ham yelkan qanotsimon.

37. Suv ostida zo'r xirmon,
Asli davo, «C» darmon.
Yo'q bo'lsa ham o'rami,
Derlar, «Dengiz karami».



38. Ituzumning qarindoshi,
Pomidorning sirdoshi.
So'rasin kim bilmasa,
Deyishar, «Yer kolbasa».

39. Darrov topib ola qol,
Mevasi kipri misol.
Yaxshi ko'rib qo'ylarni,
Tanlar ariq bo'ylarni.
U emas paxta tikan,
Bo'ztikanmas,

**40. Lub tolali poyasi,
Juda salqin soyasi.
Ipak qurtiga oziq,
Har dam barglari yoziq.**

41. Forschadan tarjimasi,
«Uch yaproqli» demakdir.
Qoramolga oziq bo'lib,
Xo'jalikka kerakdir.

**42. Popuk ildiz, tasma barg,
Yaprog'ida qinchasi.
Murakkab boshog'i bor,
Non bo'lar yo kulchasi.**

43. Guli to'pgul, boshi ro'vak.
Doni taomga kerak.
Nam talabchan poxoli,
Bug'doy emas, u

**44. Ikki uyli,
Baland bo'yli.
Qurilishbob,
Nomini top.**

45. Kraxmalga juda boy,
Ko'rgandirsiz hoynaxoy.
Poyalari tugunak,
Mevasida yo'q danak.

**46. Senga salom bermaydi,
Poyasini kermaydi.
Nomi shunday atalar,
Bug'doyzordan o'talar.**

47. Asalshiraga xo'b boy,
Cho'l, adirga u chiroy.
Ham to'yimli oziq bop,
Dukkakdoshning nomin top.

**48. Sholg'om,
turpning qarindoshi,
Qat-qat ro'molli boshi.**

49. Bir uyali tugunchasi,
To'pgullarda gul g'unchasi.
Ikki yillik savzavotdir,
Bilsang, u ham
qant – novvotdir.

**50. Cho'lda o'sadi,
Suvda cho'kadi.
Shamol to'sadi,
Shoxin to'kadi.
Toshdek yog'ochin
Arra kesolmas,
Deganlarim chin,
Zahda o'solmas.**

51. Jag'-jag'ga o'xshaydiku,
Mevasin tuk qoplagan.
Binafsharang, tojbargin,
Ho'b oftobda toblangan.

**52. Tolasi xo'jalik bop,
Tayyorlasa bo'lar qop.
Qani, o'yla, tezda top,
Ha, uning nomi**

53. Qayiq ustida yelkan,
Emasdi juda ulkan.

Ikki yonida qanot,
Eshkak eshar hasharot.
Qo'yay savol so'rog'in,
Yashirdim gulqo'rg'onin.
Qani aytchi, Noila,
Bu qaysi turkum, oila?

**54. Gullari xira sariq,
Demang, no'xat, yo tariq.
Mevalari ko'zacha,
Urug' tugar kuzgacha.
Zaharli bargi rosa,
Bu o'sha**

55. Pufakchaga qamab,
So'rar hasharot.
Qani uning nomin,
Qiling bashorat.

**56. Deymiz uni shokolad,
Tanasida mevasi.
«Chokolat» deb tanishtirar,
Hindularning shevasi.**

57. U shunday o't,
Asbob nomida.
Bargi doim,
Quyosh domida.
Undan ayon,
Bo'lar to'rt tomon.
Nobud qilmang,
Uni hech qachon.

**58. Tanasi bo'lar arqon,
Ildizi sharbatga kon.**

59. Poyalari qirrali,
Barglari foydali.
Qilmang uni payhon,
Uning nomi

**60. Choy va tariq vatani
Qaysi davlat? Ayt, qani.**

61. Pista, do'lana, lola,
Qayda o'sar, Kamola?

**62. Yashil turar to'rt fasl,
Bayramga bo'lar mehmon.
O'simlikni nomini,
Topib berginchi, Doston.**

63. Qizil lola,
xurmo va chinor.
Tog' piyozi, behi va anor.
Yo'q, qay biri
«Qizil kitob»da?
Aniqlangchi, ayni shu tobda.

**64. Topchi, senga
topishmoq,
Unga darkor cho'l, qumoq.
Do'stlari juzg'un, iloq,
Sanoqsiz, juftmi, yo toq.
Qani, ayt nomin**

65. Yomg'ir suvlarin so`rar,
Besh ming yil umr ko`rar.
Tunda xushbo`y gul ochar,
Savannaga nur sochar.
«O`simlik fili» derlar,
Maymunlar sevib yerlar.

66. Yarim qoqidir tovoq,
Uning nomichi,



67. Ko`rkam daraxtni,
Tuproq undirar.
Toping siz nomin,
«Bolta sindirar».

68. Suv ustida gul tovoq,
U go`yo yonar chiroq.
Amazonkaga bezak,
Topingchi, qo`ydim so`roq?

69. Javobini top,
Suv to`la qop.
Quyuq, dildiroq,
Chiqarar oyoq.

70. Qahraton qish kuni,
Amyoba po`stini.

71. Og`zida bordir ipi,
Suvda dumalar to`pi.

72. Nokcha, qizil ko`zi,
Yursa qolmas izi.

73. Bir poy kovush,
Chiqarmas tovush.

74. Qizil ko`zli yashil to`n,
O`simlik misoli kun.

75. Kiprigi erur oyoq,
Cho`chitsang otar tayoq.

76. Kelsa qish to`nga kirar,
Qo`y, sigirni xush ko`rar.
Oshqozonda eritma,
Pichan suvda «Ivitma».

77. Ostki tomoni,
Uning tovoni.
Paypaslagichlari,
Erur yoy - kamoni.

78. Ko`lmakdan topishgan,
Suv tubiga yopishgan.
Odimlab shoshadi,
Umbaloq oshadi.

79. Uchi butoq,
Poyi to`mtoq.
U bo`sh tuvak,
Ichi g`ovak.

80. O'simlikmas shoxlaydi,
Tegsang kamon o'qlaydi.

**81. Lichinkasi suzib yurar,
O'xshar qo'ziqoringa.
Gidraning qarindoshi,
O'troq bitta o'ringa.**

82. Rango -
rang ajib bir siyrat,
Bo'lar ohak, erur zeb - ziynat.

**83. Bu qaysi hayvon,
Shakli soyabon.
Yeb baliq chavog'in
Tozalar tavog'in.**

84. Dengizlarning ostida,
Uning katta qopchasi.
Derlar, xalq tilida,
U «Dengiz likopchasi».

**85. Og'zi qornida,
U sut rangida.
Maydallasang qancha,
Ko'payadi shuncha.**



86. Qoramol, qo'y, echkinging,
O't yo'luga yopishgan,
Lichinkasin olimlar,
Molyuskadan topishgan.

**87. Yupqa parda - pufak,
Chuvalchangga kerak.**

88. Uzun tasma bo'g'im,
O'tloqqa qo'yar tuxum.

89. Sovuq qonli,
Qo'sh qasqonli.
Poyi dona,
Misli pona.

**90. Tegsang oyog'iga,
Kirar chanog'iga.**

91. Uzun moy'lov, qorin oyoq,
Har oyoqda bolasi,
Qisqichida luqma turar,
Mehriboni holasi.

**92. So'lagidan parda to'qib,
O'tirar ertak o'qib.
O'ljasini poylaydi,
Tutsa nishin joylaydi.**

93. Zahar bezi bo'lmaydi,
O'xshaydi u chayonga.
Tun bo'lganda ov qilmoqqa,
Shoshar kulba tomonga.

**94. To'rdan
belanchak to'qib,
Tebranishin kutadi.
Kelsa o'lja nish tiqib,
Bor budini yutadi.**

95. U ham ari,
Yo'q nashtari.
Nektar ho'plar,
Asal to'plar.

**96. Hasharotlardan zoti,
Bo'lmas uning qanoti.
Sakrashda doim g'olib,
Nomini topchi, Tolib.**

97. Ishchisida qanot yo'q,
Qishin yozin qorni to'q.

**98. Suyuqlik, shira xo'plab,
Qorniga asal to'plab.
U naslini boqadi,
Podshoga xo'b yoqadi.**

99. Paxtazorda yuradi,
Shiralarni qiradi.
Qattiq qanotli o'zi,
Uning nomi

**100. U ham hasharot,
lek ucholmaydi,
Usiz inson samoni
qucholmaydi.**

101. Ta'mni sezar oyog'i,
Bo'yar qo'ling bo'yog'i.

102. Polizlarni kezadi,
Oyog'i ta'm sezadi.
Tangachali po'stiga,
Yo un sepgan ustiga.

**103. U baliq, kasbi nurchi.
Yashar ummon ostida.
Falajlaydi dushmanin,
Zahar ham bor po'stida
Elektr uchqunidan.
Dushmanlari qolmas sog`.
Tropik dengizlarda,
Yoritar ulkan chiroq.**

104. Ko'pchilikning o'yida,
Baliqlarda bo'lmas tish.
Bu baliqning yirtqichligi,
Har joyda bo'lar mish - mish.
Ancha yirik tanasi,
Torpedoga o'xshaydi.
Cho'milganni dengizda,
Gohi g'ajab tashlaydi.

**105. Jayhun hamda
Sayhunning
Lasosi, erkatoyi
Ikkinchi nomin toping,
Baliqlarning gulmoyi.**

106. U hayvonlar olasi,
Erur baqa bolasi.

**107. Nasliga g'amxo'rlikda,
O'ziga xos yo'li bor.
Manzilgohi Afrikada,
Muzdekkina ko'li bor.
Dushmanlarin ko'rganda,
Bolalarin shoshirar.
O'z naslini shu tariqa,
Keng og'ziga yashirar.**

108. Tanasining yarmini,
Egallar xumdek boshi.
Og'zi katta xo'randaning,
Baliqlar erur oshi.

**109. Qizil so'gal tugmacha,
Qadab olgan to'niga.
Yashilgina, kulrang tus,
Mos keladi iniga.**



110. U baqaning o'rtog'i
Sochi yo'q, bor tarog'i.

111. Ko'lda har kuni bayram,
Bazmu jamshid avjida.
Qo'shiq kuylar yashil to'ni,
Tovlanar suv mavjida.
Uzun oyoq, kalta bo'yin,
Raqqosa qilar o'yin.

Qani, sinab olaylik-chi,
Kimning to'g'ridir o'yi.

**112. Gohi - gohi qirg'oqda,
O'rtog'ini kutadi.
Qamishzorda pashshalarni,
Yamlamayin yutadi.**

113. Erkak baqa
qo'shiq aytsa,
U tanburi bo'ladi.
Kulrang pufak aslida,
Ayting, nima bo'ladi ?

**114. Gar bezovta qilsangiz,
Kulcha bo'lib aylanar.
Balki pichoq o'tkirlab,
U xujumga shaylanar.**

115. Ini eski tom, devor.
Tunni o'tkazar bedor.
Chiqillashi, - kuylashi,
Hasharotdir ovlashi.



**116. Qum ustida qotadi,
Harakatsiz yotadi.
Yalangoyog' bosib olsang,
Chaqib ta'ming totadi.**

117. Tangachalarin ishqab,
Nola qilar charx misol.
Balki shu kuy sadosi,
Uning nomiga timsol.

118. Bo`lmas uning oyog`i,
Ham uchinchi qovog`i.
Qolib ketar eski uyda,
Yechib qo`ygan poypog`i.

119. Yashash joyi adir, cho`l,
Do`stining manzili ko`l.
Beliga bog`lab toshin,
Uxlab o`tkazar yoshin.

120. Bo`yni uzun,
Harkatchan juda boshi.
Har gal ko`rsam,
Yelkasida turar toshi.

121. Javob bering so`roqqa,
Tuxum qo`yar qirg`oqqa.
Terisi qimmatbaho,
Topganga a`lo baho.
O`ljasin suvda kutib,
Hatto echkini yutib.
Kunduz bo`lsa shu tobda,
Isinar u o`ftobda.

122. Kalta oyoq, ayri dum,
Qanotin qoqmas bir zum.
Daraxtzorlarni ko`zlar,
Kemiruvchini izlar.

123. Saksovlzor,
cho`l, xaroba,
Ikki quloch uychasi.
Ochko`z, yirtqich
qushlar sheri,
Toshbaqa ham o`ljası.



124. Yuzi qizil, dumi ayri.
Bahorda bo`lar sayri
Oyog`i kalta, kuchsiz,
Yerda hech yurolmaydi.
Hasharotlar yo`q yerda,
U uzoq turolmaydi.

125. Uning iniga boqing,
Sharining chorak bo`lagi.
To`shalgan xas, pat va qilga,
Aralashar so`lagi.
Yassi qisqa tumshug`i,
Moslashmagan cho`qishga.
Go`zal qushga qancha ertak,
Yarashadi to`qishga.



**126. Shaqillab
kuylar bir zum,
Ola rangli uzun dum.
Juft - juft yashar,
goh yakka,
Bu zag`izg`on yo**

127. Imorati xas cho`pdan,
Ishkomlarning ustida.
Beozor, don xo`r bu zog`,
Kabutarining do`stida.

**128. Don neligin bilmaydi,
Chang`i uchib tinmaydi.
Baliq ushlab,
ko`ngil xushlab,
Ayozdan g`am qilmaydi.**

129. Tuxumini qo`yadi,
Xolasining uyiga.
Sinchalakni o`ynatadi,
Bolasining kuyiga.

**130. Tovuqlar oilasidan,
Qushlar sulolasidan.
Yaltiroq binafsha tus,
Ko`ksida alvon yulduz.
To`qayzorda yugurib,
Jo`jalarin yetaklar.
Uning manzili erur,
Daryo bo`yi etaklar.**

131. U sayroqi
tovuqlarning sarasi,
Yashash joyi
archazorlar orasi.
Qoyalarga uya solib, jo`ja
ochar,
Havfni sezsa darhol gala
bo`lib qochar.
Ovlanadi u mazali go`shti
uchun,
Asraladi bahor va yoz pushti
uchun.

**132. Yalang`och
qoyalarga in qurmay,
Tuxum qo`yar.
Uya qurmas bu
qush nomin qani,
Kim aytib berar?**



133. To`qayga u qorovul,
Qushning nomi

**134. Yelpig`ich dumi uzun,
Ko`z - ko`z etar tunu kun.
Chiqaradi sho`x tovush,
Bu qushning nomi**

135. Eski daraxt orasida,
Qush ko`rdim ajabtovur.
Shim kiygan, alvon rangda,
O`z biliming sinab ko`r.

136. Daraxtlarga tirmashib,
Har kun nog`ora chalar.
Ikki barmoq oldga tomon,
Shunchasi orqa hamon.

137. Simyog`ochga tayanar,
O`z dumiga suyanar.

138. Uning do`sti Oqbag`ir,
Faqat kichik galasi.
Sizga qoldi, o`ylang, toping,
Topishmoqning chalasi.

139. Yelpig`ichsiz yashaydi,
Sahro cho`lning damida.
Ucholmaydi, yuguradi,
U zebra dek kamida.


140. Manzili cho`l davoni,
Sira kuymas tavoni.
Sahro cho`poni nima?
Faqat u tuya dema.

141. Ikki barmog`i,
Yo`qdir tirnog`i.
Topingchi uni,
Afrika zog`i.

142. In qurar qumni kavlab,
Tinmay hasharot ovlab.
Qovundek tuxum qo`yar,
Yashirib, rangga bo`yar.

143. Pirillatib qanotin,
Samoga tik uchadi.
Boshida uzun toji,
Sayrab Yerni quchadi.

144. Suzib yurar,
Kalta oyoq.
Panjalari pardali,
Takror - takror
«Vit - vit» degan,
Har qo`shig`i karrali.



145. O`t o`radi o`roqdek,
Uzun bo`yni so`roqdek.
O`rdak bilan yo`ldoshdir,
Laylak bilan sirdoshdir.
Bor pardali oyog`i,
Sizga qoldi buyog`i.

146. Eski bino tomiga,
Sim yog`och peshtog`iga.
Xas-cho`pdan in quradi,
Bir oyoqda turadi.

147. Qanotlari keng, qora,
Uzun, qizil oyog`i.
Balchiqdan baqa izlar,
Oq ko`rinar bo`yog`i.
Shundan bo`lsa ham kerak,
Uning nomi oq.....

148. Oziqlanar baliq bilan,
Qisqichbaqa palovi.
Kerak emas hech unga,
Tuyaqushning olovi.
Eshkagi bor, qayig`i yo`q,
Tik turadi yurganda.
Parvo qilmas,
qochib qolmas,
Odamlarni ko`rganda.

149. Kalta qanot uzun oyoq,
Yurar go`yoki maymoq.
Momiq pari qordek oppoq,
Sizga bo`lsa - chi so`roq?

150. Yalong`och bo`yni uzun,
Gohida derlar,.....



151. Suv ustida bir sayoq,
Sim yog`ochda bir oyoq.

152. Qanotlari keng qora,
Uzun, qizil oyog`i.
Ilon yeydi kulbasida,
Qani, bitta oyog`i.

153. Sira ko`rmdim to`rda,
Yemishi o`lik, murda.
Tumshuqlari qayrilgan,
Tirnog`idan ayrilgan.
Qanotlari bir quloch,
Parsiz bo`yni yalong`och.

154. Sayhonlikda sayr qilar,
Murda terisin tilar.
Qanotiga bir qara,
Ha, bu o`sha.....

155. To`rtta barmoq,
O`tkir tirnoq.
Ikki to`p pati,
Eslatar quloq.
Tunda ovi,
Xo`p omadli.
Yengil patli,
Keng qomatli.

156. O`ynar tunda,
Uxlar kunda.
Ukkining ukasi,
Uyning bekasi.

157. Husni tovuqlarda qayd,
Sen qadimgi zog`ni ayt.

**158. Biru, ikki,
Dumi dikki.
Tunda uchgan,
Nima ?**

159. Topgan topaloq,
Yuzi yapaloq. .
O`ynar tunda,
Quvlashmashochq.
Qoraqurtni yer,
Oyni Quyosh der.

**160. Tuxumini olib
yurar xaltada,
Kipri misol, oyoqlari
kaltada.**

161. Ko`ramiz kim, topag`on?
O`rdakmi u, tovushqon.
O`rdak desam bor suti,
Tuxumiga yo`q quti.

**162. U xaltali hayvon,
Demang aslo shayton.
Opichlalar bolasin,
Tanimaydi xolasin.**

163. Uzun bo`yli xonimcha,
Xaltasi bor qornida.
Havf tug`ilsa shataloqlab,
Sakray olar o`rnida.



**164. Xaltasida bolasi,
Bo`lmas uning olasi.
O`tlaganda poylaydi,
Jajjisini onasi.**

165. Ko`zi ojiz,
Bor xartumi.
Qisqarib qolgan dumi,
Jag`ida bir xil tishi.
Har tunda bir xil ishi.
Do`sti uning Yerqazar,
Yugurushda kim o`zar?

**166. Ishonmasa kuchiga,
Kirar tikan ichiga.**

167. Havf sezganda g`ujunak,
Go`yo chaqir tikanak.
Qish kirganda uxlaydi,
Nayzasini o`qlaydi.

**168. Uchganda uchqur ot,
Turkumi qo`lqanot.
Kunduzi ko`rmaydi,
Bolasiz yurmaydi.**

169. Berkitilsa og`zi va qulog`i,
To`xtaydi oviyu, ulog`i.

**170. Qush emas uchadi,
Bolasini quchadi.
Buzsang uyini,
G`orga ko`chadi.
Dam olsa pastga,
Tashlar boshini.
Tunda ovlaydi
Kunlik oshini.**

171. Odamlarning yo`ldoshi,
Boyo`g`lining sirdoshi.
20 ga yetadi,
Keksayganida yoshi.



**172. Cho`lda otar shataloq,
Uzun dum, shalpanquloq.
Tirgak unga juft oyoq,
Aytingchi, bu.....**

173. Quvlashmoq o`ynashsa,
Qo`shoyog`u tovushqon.
Ko`k sug`ur ham shu safda,
Hakam bo`lsa uy sichqon.
G`olib, mag`lub barisi,
Qarindosh emasmikan?
Turkumlarning nomini,
Topqir ham bilmasmikan?

174. Yemishi yoz poliz ekin,
Qish faslida murda tekin.
Dumi uzundir, ayyor,
Kimning javobi tayyor?

**175. To`qayda
ko`rdim bo`ri,
Qovun g`ajir bir so`ri.
Tulkiga erur ulfat,
Kemiruvchiga kulfat.**

176. Yo`l-yo`l chiziqli baroq,
Topingchi, qo`ydim so`roq.

**177. Uyda yursa har kuni,
Poylar polning teshigin.
Sichqonvoyga
buyruq berar,
- Ochib qo`y, deb eshiging.**

178. Dashtda yashar
doim to`q,
Chopqirlikda tengi yo`q.
Bilmagan bilib olsin,
Qarindoshi silovsin.

**179. Susarga oiladosh,
Bog`liqdir nasli.
Qashqaldoqning nomi
Nimadir asli?**

180. Yaxshi suzadi,
Qirg`oq buzadi.
Mo`ynasi maftunkor,
Dunyo kezadi.

**181. U yirtqich, ham
o`txo`rdir,
Bolalari sutxo`rdir.
Kovakdan yalar asal,
U haqda ko`pdir masal.**

182. Go`yo oppoq qor,
Arktikada bor.
Uning oshiyoni,
Oroldagi g`or.

**183. Sho`ng`ib, suzadi.
Yo`q qayig`i,
Tyulen ovlaydi.
Qutb**

184. Suprasiz qulog`i,
Kurakdur oyog`i.
Yashash manzili,
Grenlandiya oroli.

**185. Jag`ida ikki qoziq,
Mollyuska unga oziq.**

**186. O`zi ola, bolasi oq.
Muzda yotar, kurak oyoq.**

187. Tapir-tupur etdiyu,
Bir hayvon kirib keldi.
Bu ovoz shu hayvonning,
Nomini aytib berdi.

**188. Nomidan ma`lum,
Shira ozig`i.
Mitti, sayroqi.
Afrika zog`i.**

189. Bolasi momiq oppoq,
Bilmaydi suzishni ham.
Xuddi oq ayiq misol,
Qilmaydi ayozdan g`am.


**190. Bo`ri qorni ochsa,
Quyvon bo`lsa, deydi
Qani, ayting tezkor,
Kit nima yeydi?**

191. O`zi qushu uchmaydi,
Sovuqdan cho`chimaydi.
Qishda ochar jo`jasin,
Muz materik – go`shasi.

**192. Tuxum qo`ysa
g`aqillab,
Chaqiradi xolasin.
Go`yo odam misoli,
Emizadi bolasin.**

193. Oziq to`plar bo`g`zida,
Tishi yo`qda og`zida.
Popukkina mo`ylovi,
To`rda bo`ladi ovi.

**194. Dengiz ostida,
Surnay chaladi.
Bo`lganda tushlik,
Yoki nohushlik.**



195. O`zi hayvonlar zo`ri,
Nomin bilsangiz

**196. U ham xaltali hayvon,
Suv ichmagay hech qachon.**

197. Suvga sho`ng`iydi uzoq,
Qo`yib yurmagin tuzoq.
Go`yoki, u exolot.
Uning nomi

**198. Yuqori labi, burni
Endi uning hartumi.
Shundan buyon atalar,
Hartumlilar turkumi.**

199. Yemishi yantoq, sho`ra
Oziq tanlamas - ho`ra.
«Cho`l kemasi» yuk tashir,
Mayli, javobing yashir.

**200. Sigir, bug`u, jirafa,
Antilopa, echki, qo`y.
Ular bir taraflama,
Qani, kimda qanday o`y?**

201. U ohu, g`izol.
Nomini topaqlol.

**202. Se-se pashshasi
chaqib,
Ziyon yetkazolmaydi.
Terisi yo`l-yo`l chiziq,
Hech kim ketkazolmaydi.**

203. Qo`pol, beo`hshov jonzot
U «Suv ayg`ir», yo «Suv ot».
Terisi silliq, tuksiz.
Kishnar, gigant

**204. Ariqqa qurar to`g`on,
Shox kesar yo`g`on -
yo`g`on.
Hovuzga uy quradi.
Qishin - yozin turadi.
Issiq, pishiq mo`ynasi,
Topmoq bo`lgan o`ylasin.**

205. Arktikaning hayvoni,
Qorli g`or - uy-ayvoni.
Sho`ng`ir suvga, goh chopar,
Ozig`in ovlab topar.
Yemishi tyulen, qushlar,
Baliq yeb ko`ngil hushlar.

**206. Shoxini tashlaydi,
Ikki bor oshlaydi.
Ko`klam chog`i,
Bolalay boshlaydi.**

207. Afrika savannasin,
Basketbol jamoasin.
Sardori, uzun bo`yin,
Qani, boshlandi o`yin.

**208. Zotsizi «Ko`ppak»,
Mushukka qozi.
«Dog»i xizmatchi,
Ov qilar «Tozi».**

209. Kam harakat qiladi,
Uni hamma biladi.
Daraxtda oziq ovi,
Avstraliya

210. Yirtqich hayvon o`zi,
Juda qadimgi.
And tog`ida yashar.
Bor ko`zoynagi.

211. Muz sahrolar bag`rida,
Bitta bola tug`adi.
Oq ayiqqa o`xshamasa,
Ayiq uni bo`g`adi.

212. Itning bolasi kuchuk,
Tuaniki bo`taloq.
Uloqning onasi-chi?
Qani, topgan topaloq.

213. Erkasi qo`zi,
Nimadir o`zi.



214. Arktikada yashaydi,
Quloq suprasi yo`qdir,
Baliqqa boy joylarda.
U doimo to`qdir.

215. Ozig`i shox-shabbalar,
Avstraliya - vatani.
Xaltasi bor ayiqning
Nomini topchi, qani?

216. Yo`l - yo`l chiziq,
toq tuyuq.
Bezagi emas bo`yoq.

217. Bor besh barmog`i,
Yassi tirmog`i.
Junsizdir uning,
Yuz, qo`l-oyog`i.

218. Banan desang,
Tomdan tashlaydi.
Qaysi maymun,
Yerda yashaydi?

219. Bajarar tez ishini,
Tozalar u tishini.
Sirkda hayratga solar,
Kuldirib har kishini.

220. Toq tuyuq,
Tik quloq.
Qora, qizil,
Gohi qirmiz.
Uning suti,
Bo`lar qimiz.

221. O`ngu so`ldan o`qisang,
Bir xil nom o`qiladi.
Tuyog`i juft tur haqida,
Ko`p she`rlar to`qiladi.

222. Na hayvondir u na qush,
Uzun oyoq, katta to'sh,
Tuyadan tez chopar u,
Bilsang nomi

**223. U sayr qiladi uchmay,
Shu keng samoni quchmay.
Pati yengil, mayindir.
Topmog'ingiz tayindir.
Okeaniyaning chiroyi,
Qushlarning erkatoyi.**

224. Xonaki parrandalar,
Hozirgi zotlari.
Tropik o'rmonlarda,
Yashar ajdodlari.

**225. Xonaki tovuqning,
Shajara boshi.
Oshqozoni go'yo,
Tegirmon toshi.**

226. Haftaning kunlari jam,
Sanasangiz bo'yinda.
Bel va dumg'azalar teng,
Durrang bo'ldi o'yinda.
Chanoq qiladi ta'qib,
Dumg'azaga yo'q raqib.
Ko'krak tushdi maydonga,
Bir yildagi oy misol.
Qani, o'ylab, raqamlardan,
Ne sirligin, topib ol.

**227. Savannadir makoni,
Hasharotlar sultonin.
Qurar qator minora,
Qiroli tuproq ostin.**

228. Yasar belanchak,
Uxlar kelinchak.
O'ljani kutar,
Yamlamay yutar.



**229. Qorni to'ygach ipidan,
Yasab qo'yar qovuncha.
Xamagini ichida,
G'umbagi yotar kulcha.**

230. Tanglayida tishi bor,
Botqoqlikda ishi bor.
Pashsha ovlab tinmaydi,
Quruqlikka ko'nmaydi.

231. Cho'lning bag'rida,
Juda sekin yuradi.
Biror xavf tug'ilsa,
Kosasida turadi.

**232. Bor uning qilichi,
Dastasiyu tanasi.
Qovurg'ayu, umrovlarning
Bo'lib qolgan panasi.**

233. Oziq unga gul shirasi,
Mitti qushlarning sarasi.

234. Bug`imni yozib,
Tanangni cho`zar.
Suyakka birikib,
Dunyoni kezar.

235. Beshtadan sizda to`rtta,
Har birida o`n to`rtta.
Qo`lingizga qarab boqing,
Baland bo`ylisi o`rta.

236. Qani topgan topaloq,
Unda bo`ladi qopqoq.
Bog`lanib boldir va son,
Oyoqqa erur darmon.

237. Qafasga qalqondir,
Cho`qmorli qushda.
Bu suyakning nomi,
Albatta.....

238. Ikki shar qafasda,
To`lar bir nafasda.

239. Safda qator turishar,
Do`st bo`lsada urushar.
Qaychi emas qirqadi,
Tilim undan qo`rqadi.

240. Osh to`la qozon,
Bo`sh bo`lar ozon.

241. Demang tishlar
behisob,

Qani, o`yla tezda top.
Sanab ko`r,
Ikkita kurak,
Taom kesmoqqa kerak.
Gar bo`lsa bitta qoziq,
Nechta bo`ladi oziq?

242. Topmoq istasang gar,
Terlatgin manglay.
Ta`m sezgich bu a`zoning,
Nomidir.....

243. A`zolarining bittasi,
Bezlardan eng kattasi.
O`lchasangiz buyrakning,
Teng keladi o`ntasi.

244. Yallig`lansa oshqozon,
Atashar, bu enterit.
Yo`g`on ichakning tashxisi,
U holda erur.....

245. Abror bugun bezovta,
Rosa qolibdi xorib.
Tili va og`zi qurib,
Ko`p qusdi, qorni og`rib.
Tushlikda kun tig`ida,
Yeganmish u kolbasa.
Shifokorlar qanday tashxis.
Aytib, koyiydi rosa.

246. Sizda bor minora,
Tog'aydan yaralgan.
Undagi tovushlar
Olamga taralgan.

247. Achchiq bo'ladi,
Qizil garmdori
Topingchi, Ko`p unda
Qaysi darmondori?

248. Ikki tugmacha qadoq,
Topingchi, qo`ydim so`roq.
Ochsang ochilar darcha,
Yumsang tundan bir parcha.

**249. Signalni kutadi,
Tovushni tutadi.**

250. Garmonlardan biri,
Nimada ekan siri,
Ishlamasa gar soz,
Gigant bo`lasan bir oz.

**251. Sezish, idrok etish,
Xizmat doirasi.
Derlar mittigina,
Nerv hujayrasi.**

252. Yot moddani haydaydi,
Himoyalab a`zoni.
Uni desangiz bo`lar,
Hujayra oshqozoni.

**253. Hujayra bosh panasi,
Bo`yaluvchi tanasi.
Mag`izdagi juft tayoq,
Nomi sizlarga so`roq?**

254. Unda jamuljam bo`lgan,
Belgilarning barchasi,
Topib oling, u asli
Xromasoma parchasi.

255. Unda saqlanar tirikning,
Ajdodi yetti pushti.
Hujayra bo`linmoqchi,
Ana u ishga tushdi.

**256. Uning sochlari silliq,
Bug`doyrangdir badani.
Yanog`i keng, ko`z qisiq
Qaysi irqning odami?**

257. Uning sochlari qo`ng`ir,
Qora rangda badani.
Afrikani makon qilgan,
Qaysi irqning odami.

**258. Qani, topgan topaloq
Sochi sariq, rangi oq.
Odamlarning naslidan,
Ovrupolik aslida.**

259. To`rtta qobiq sirlashib,
Endi qoldi birlashib.
Nom beringchi, majmuaga
Javob toping o`ylashib

**260. Baqa desam bor dumi,
Qanotiyu panjasi.
Taxmin qilsak, u bo`larmi
Baliqlarning kenjasi ?**

TOPISHMOQLAR JAVOBI

- | | | |
|--------------------------------|--------------------|-----------------------------|
| 1. (Jaydari g'o'za) | 26. (Yong'oq) | 53. (Burchoqdoshlar oilasi) |
| 2. (Jag' - jag') | 27. (Piyoz) | 54. (Shaytonkosa) |
| 3. (Sho'radoshlar) | 28. (Karam) | 55. (Suv qaroqchisi) |
| 4. (Turp) | 29. (Piyoz) | 56. (Kakao) |
| 5. (Saksovul) | 30. (Piyoz) | 57. (Kompas o't) |
| 6. (Ismaloq) | 31. (O'sma) | 58. (Karam daraxti) |
| 7. (Bug'doy) | 32. (Tarvuz) | 59. (Rayhon) |
| 8. (Lavlagi) | 33. (Archa) | 60. (Xitoy) |
| 9. (Sholi) | 34. (G'o'za) | 61. (Tog'da) |
| 10. (Kartoshka) | 35. (Yalpiz) | 62. (Archa) |
| 11. (Kartoshka) | 36. (Yeryong'oq) | 63. (Behi) |
| 12. (Kartoshka) | 37. (Laminariya) | 64. (Shuvoq) |
| 13. (Kartoshka) | 38. (Baqlajon) | 65. (Boabab daraxti) |
| 14. (Lishaynik) | 39. (Qo'ytikan) | 66. (Qovoq) |
| 15. (Go'ng zamburug'i) | 40. (Tut) | 67. (Shmidt qayini) |
| 16. (Go'ng zamburug'i) | 41. (Sebarga) | 68. (Viktoriya regiya) |
| 17. (Bug'doy) | 42. (Bug'doy) | 69. (Amyoba) |
| 18. (Nok) | 43. (Sholi) | 70. (Sista) |
| 19. (Kladofora, Spirogira) | 44. (Mirzterak) | 71. (Volvoks) |
| 20. (Qovun) | 45. (Kartoshka) | 72. (Volvoks) |
| 21. (Qulupnay) | 46. (Salomalaykum) | 73. (Infuzoriya - tufelka) |
| 22. (Vilt) | 47. (Yantoq) | 74. (Yashil evglena) |
| 23. (Anor) | 48. (Karam) | 75. (Infuzoriya - tufelka) |
| 24. (Kungaboqar) | 49. (Lavlagi) | 76. (Infuzoriya) |
| 25. (Ituzum)(Kebracho daraxti) | 50. (Saksovul) | |
| | 51. (Tukli chitir) | |
| | 52. (Kanop) | |

- 77.(Gidra)
78.(Gidra)
79.(Gidra)
80.(Gidra)
81.(Aktiniya)
82.(Korall poliplari)
83.(Meduza)
84.(Aureliya)
85.(Planariya)
86.(Jigar qurti)
87.(Finna)
88.(Qoramol
tasmasimon
chuvalchangi)
89.(Baqachanoq)
90.(Chuchuk suv
shillig'i)
91.(Qisqichbaqa)
92.(Butli o'rgimchak)
93.(Falanga)
94.(Butli o'rgimchak)
95.(Truten)
96.(Burga)
97.(Chumoli)
98.(Ishchi chumoli)
99.(Xonqizi)
100.(Tut ipak qurti)
101.(Karam
kapalagi)
102.(Karam
kapalagi)
103.(Skat balig'i)
104.(Akula)
105.(Forel)
106.(Itbaliq)
107.(Tilyapiya
balig'i)
108.(Cho`rtan
baliq)
109.(Qurbaqa)
110.(Triton)
111.(Yashil
qurbaqa)
112.(Yashil
qurbaqa)
113.(Rezonator)
114.(Charx iloni)
115.(Gekkon
kaltakesagi)
116.(Ko`lvor ilon)
117.(Charx iloni)
118.(Ilon)
119.(Toshbaqa)
120.(Toshbaqa)
121.(Timsoh)
122.(Qora kalxat)
123.Burgut
124.(Qaldirg`och)
125.(Qaldirg`och)
126.(Hakka)
127.(Musicha)
128.(Pingvin)
129.(Kakku)
130.(Qirg`ovul)
131.(Kaklik)
132.(Kayra)
133.(Qirg`ovul)
134.(Tovus)
135.(Qizilishton)
136.(Qizilishton)
137.(Qizilishton)
138.(Qorabag`ir)
139.(Tuyaqush)
140.(Tuyaqush)
141.(Tuyaqush)
142.(Tuyaqush)
143.(So`fito`rg`ay)
144.(O`rdak)
145.(G`oz)
146.(Laylak)
147.(Laylak)
148.(Pingvin)
149.(Pingvin)
150.(Laylak)
151.(Tasqara)
152.(Laylak)
153.(Tasqara)
154.(Tasqara)
155.(Ukki)
156.(Boyo`g`li)
157.(Bankiv
tovug`i)
158.(Ukki)

159. (Ukki)
160. (Yexidna)
161. (O`rdakburun)
162. (Koala xaltali ayig`i)
163. (Kenguru)
164. (Kenguru)
165. (Tipratikan)
166. (Tipratikan)
167. (Tipratikan)
168. (Ko`rshapalak)
169. (Ko`rshapalak)
170. (Ko`rshapalak)
171. (Mitti ko`rshapalak)
172. (Qo`shoyoq)
173. (Tovushqonlar, kemiruvchilar turkumi)
174. (Tulki)
175. (Chiyabo`ri)
176. (Yo`lbars)
177. (Mushuk)
178. (Gepard)
179. (Bo`rsiq)
180. (Qunduz)
181. (Qo`ng`ir ayiq)
182. (Oq ayiq)
183. (Ayig`i)
184. (Grenlandiya tyuleni)

185. (Morj)
186. (Tyulen)
187. (Tapir hayvoni)
188. (Nektarxo`r)
189. (Tyulen)
190. (Plankton)
191. (Pingvin)
192. (O`rdakburun)
193. (Ko`k kit)
194. (Delfin)
195. (Bo`ri)
196. (Koala xaltali ayig`i)
197. (Kashalot)
198. (Fil)
199. (Tuya)
200. (Juft tuyoqlilar)
201. (Jayron)
202. (Zebra)
203. (Begemot)
204. (Suv qunduzi)
205. (Oq ayiq)
206. (Bug`u, Los)
207. (Jirafa)
208. (It)
209. (Yalqovi)
210. (Ko`zoynakli ayiq)
211. (Grenlandiya tyuleni)
212. (Echki)

213. (Qo`y)
214. (Grenlandiya tyuleni)
215. (Koala)
216. (Zebra)
217. (Maymun)
218. (Pavian)
219. (Maymun)
220. (Ot)
221. (Kiyik)
222. (Tuyaqush)
223. (Kivi qushi)
224. (Yovvoyi bankiv tovug`i)
225. (Yovvoyi bankiv tovug`i)
226. (Umurtqa pog`onasi)
227. (Sariq o`rmon chimoli)
228. (O`rgimchak)
229. (Tut ipak qurti))
230. (Baqa)
231. (Toshbaqa)
232. (To`sh suyagi)
233. (Kolibri)
234. (Muskul)
235. (Barmoqlar)
236. (Tizza)
237. (To`shda)

238. (O`pka)
239. (Tish)
240. (Oshqozon).
241. (5 ta)
242. (Tanglay)
243. (Jigar)
244. (Kolit)
245. (Botulizm)
246. (Kekirdak)

247. («A»
darmondori)
248. (Ko'z)
249. (Quloq)
250. (Somatotrop
garmoni)
251. (Neyron)
252. (Lizosoma)
253. (Xromasoma)

254. (Gen)
255. (Mag`iz)
256. (Mongoloid)
257. (Negeroid)
258. (Yevropoid)
259. (Biosfera)
260. (Qadimgi
cho`tka qanotli
baliqlar)

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. P. Baratov. «Botanika» 5-6-sinf 2003-2005-yillar.
2. O. Mavlonov. «Zoologiya» 7-sinf 2005-yil.
3. B. Aminov, T. Tilavov, O. Mavlonov. 8-sinf 2006-yil.
4. A. Zikiryayev, A. To`xtaev. I. Azimov, N. Sonin.
«Biologiya va Genetika asoslari» 9-sinf 2006-yil.
5. U kim, bu nima? Bolalar entsiklopediyasi.

QAYDLAR UCHUN

WWW.MATLIB.UZ

O'quv-uslubiy nashr

Doniyor MAVJUTOV
Doston DOVLATOV

BIOLOGIK

TOPISHMOQLAR

(Uslubiy qo'llanma)

Muharrir: **Dilmurod JUMABOYEV**
Texnik muharrir : **Ibrohim YUSUPOV**
Musahhhih: **Adiba HUSHRO'Y**

2015-yil 4-avgustda terishga berildi.
2015-yil 20-avgustda bosishga ruxsat etildi.
Bichimi 60x84. Hajmi 2.0 bosma taboq.
Ofset usulida bosildi. Buyurtma - 716
Adadi 500 nusxa. Bahosi erkin narxda.

«Namangan» nashriyoti
160108, Namangan shahri, Navoiy, 36
Tel: (0369) 227-92-14

Nashriyot litsenziya raqami AI-156
2009-yil 14-avgustda berilgan.

«Zakovat» nashriyot uyi MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: Kosonsoy shahri, Chorbog' ko'chasi, 17